

**BUXORO VILOYATIDA EKSPORT SALOHIYATINI
OSHIRISHNING TASHKILY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Umaraliyev Sarvar Rustamovich

BuxDU tadqiqotchisi

e-mail: sarvarumaraliyevbuxdu26@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda Buxoro viloyatida eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududiy eksportyorlarning tashqi bozorlarga chiqishida yuzaga kelayotgan texnik, institutsional, axborot va sertifikatlash bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, Buxoro viloyatida to‘qimachilik, agro-oziq-ovqat, turizm va hunarmandchilik yo‘nalishlari bo‘yicha eksport klasterlarini shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Taklif etilayotgan mexanizmlar eksportyorlarning xarajatlarini kamaytirish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlash, yangi tashqi bozorlarga chiqish va hududning eksport salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: eksport, eksport salohiyati, eksportni qo‘llab-quvvatlash, tashkiliy mexanizm, eksport markazi, eksport klasteri, Buxoro viloyati.

O‘zbekistonda amaldagi eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimi milliy darajada yaxlit shakllantirilgan bo‘lsa-da, uning hududiy bo‘g‘ini zaif rivojlangan. Eksportni rag‘batlantirish agentligi, «O‘zbekinvest» va eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi kabi institutlar asosan poytaxtda jamlangan, viloyat darajasida esa eksportyorlarga yaxlit, bir nuqtadan xizmat ko‘rsatuvchi tuzilma yo‘q. Natijada hududiy eksportyorlar moliyalashtirish, sug‘urta, sertifikatlash, marketing va konsalting xizmatlarini olish uchun turli idoralarga alohida murojaat qilishga majbur bo‘lib, bu vaqt va tranzaksion

xarajatlarni oshiradi. Muallif tomonidan bunday muammoga yechim sifatida hududdagi eksportyorlarga Yevropa va boshqa salohiyatli bozorlarga kirish shartlariga moslashishga yordamlashuvchi, texnik to'siq (TBT – technical barriers to trade) hamda fitosanitariya standartlari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi, zamonaviy laboratoriyalardan iborat "Eksportga ko'maklashish maxsus markazlari"ni tashkil etish maqsadga muvofiqligi dalillangan.

Jahon bozorlarida, ayniqsa Yevropa Ittifoqi va boshqa yuqori talab qo'yiladigan bozorlarda eksport faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mahsulotning nafaqat narx va hajm bo'yicha, balki texnik to'siqlar (TBT – Technical Barriers to Trade) hamda sanitariya va fitosanitariya (SPS) talablariga muvofiqligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday bozorlarda mahsulot sifati, xavfsizligi, laboratoriya sinovlari, kelib chiqish va izchillik (traceability), qadoqlash, markirovka, sertifikatlash hamda standartlashtirish talablariga javob bera olmagan korxonalar eksport bozoriga kira olmaydi yoki katta tranzaksiya xarajatlariga duch keladi.

Buxoro viloyatida eksport salohiyatiga ega bo'lgan to'qimachilik, meva-sabzavot, oziq-ovqat, charm-poyabzal, kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari uchun asosiy muammo shundaki, eksportga chiqish jarayonida TBT va SPS talablarini bajarish bo'yicha hududiy institutlar, konsultativ xizmatlar va zamonaviy laboratoriya infratuzilmasi yetarlicha integratsiyalashmagan. Natijada korxonalarda eksportga tayyorgarlik xarajatlari oshadi, sertifikatlash jarayoni cho'ziladi, ayrim hollarda mahsulotlar tashqi bozorda rad etiladi yoki past narxda sotiladi.

Shu nuqtai nazardan, hududdagi eksportyorlarga Yevropa va boshqa istiqbolli bozorlarga kirish shartlariga moslashishga ko'maklashuvchi, TBT va fitosanitariya standartlari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi, zamonaviy laboratoriyalarni o'z ichiga olgan "Eksportga ko'maklashish maxsus markazlari"ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur institutsional tuzilmaning maqsadi – eksportyor korxonalarning mahsulotini xalqaro

ilmiy –amaliy anjuman

standartlarga moslashtirish, eksportga kirishdagi institutsional va texnik to‘siqlarni kamaytirish, eksport xarajatlarini qisqartirish hamda hududiy eksport salohiyatini oshirishdan iborat (1-rasm).

Mazkur modelda “Eksportga ko‘maklashish maxsus markazi” hududiy eksport infratuzilmasining markaziy bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. U bir vaqtning o‘zida axborot-konsalting, laboratoriya, sertifikatlashga tayyorlash va amaliy hamrohlik funksiyalarini bajaradi. Bunda markaz faoliyati “eksportyor korxona – laboratoriya – sertifikatlash organi – bojxona/logistika subyektlari – tashqi bozor” zanjirini yagona tizimga keltiradi (1-rasm).



1-rasm. “Eksportga ko‘maklashish maxsus markaz”ni joriy etishning institutsional asosi¹

Ushbu sxema asosida markaz faoliyati hududda “yagona darcha” tamoyili asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Natijada eksportyor korxona bir nechta tashkilotlarga alohida murojaat qilish o‘rniga, bitta markaz orqali xizmatlarning to‘liq paketini oladi. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va eksport jarayonini jadallashtiradi.

¹ Muallif ishlanmasi.

Xalqaro tajriba bunday institutsional modellarning samaradorligini tasdiqlaydi. Janubiy Koreyaning KOTRA (Korea Trade-Investment Promotion Agency), Turkiyaning hududiy eksportyorlar birlashmalari va Malayziyaning MATRADE tashkilotlari eksportyorlarga aynan kompleks, hududiy darajaga yaqinlashtirilgan xizmat ko‘rsatish orqali milliy eksportni sezilarli oshirgan. Bu tashkilotlarning umumiy xususiyati – ular eksportyorni passiv kutmasdan, faol qidiradi, tayyorlaydi va xalqaro bozorga olib chiqadi. Muallif fikricha, Buxoro viloyati uchun ham aynan shunday proaktiv, natijaga yo‘naltirilgan hududiy model maqsadga muvofiq bo‘lib, u milliy eksport siyosatining hududiy darajadagi samarali ijrochisi vazifasini bajaradi².

1-jadval.

**“Eksportga ko‘maklashish maxsus markazi”ning asosiy xizmatlari
va kutiladigan iqtisodiy natijalari**

Markaz bo‘limi yoki xizmati	Asosiy vazifasi	Eksportyorga ta’siri	Hududiy natija
TBT bo‘yicha konsultatsiya	Texnik reglament, standart, markirovka va muvofiqlik talablarini tushuntirish	Mahsulotni maqsadli bozor talabiga mos tayyorlash imkoniyati oshadi	Tashqi bozorlarga chiqishdagi texnik to‘siqlar kamayadi
SPS va fitosanitariya xizmati	Sanitariya, fitosanitariya, oziq-ovqat xavfsizligi	Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat eksportida rad	Agroeksport hajmi va sifati oshadi

²Lederman D., Olarreaga M., Payton L. Export Promotion Agencies: Do They Work? // Journal of Development Economics. — 2010. — Vol. 91, No. 2. — P. 257–265.

ilmiy –amaliy anjuman

	talablarini joriy etish	etilish xavfi kamayadi	
Zamonaviy laboratoriya	Kimyoviy, mikrobiologik va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha sinovlar o'tkazish	Mahsulotning muvofiqligi oldindan aniqlanadi	Sertifikatlash jarayonining ishonchliligi ortadi
Sertifikatlashga ko'maklashish	Hujjatlar tayyorlash, audit va sertifikat olishga hamrohlik	Sertifikat olish muddati va xarajati qisqaradi	Eksportga tayyor korxonalar soni ko'payadi
O'qitish va metodik xizmat	Eksportyor xodimlarini standartlar va eksport marketingi bo'yicha tayyorlash	Korxona ichki sifat boshqaruvi kuchayadi	Hudud eksport infratuzilmasining institutsional salohiyati ortadi
Bozor axborot xizmati	Yevropa va boshqa bozorlardagi talablar bazasini yuritish	To'g'ri bozor tanlash va moslashish osonlashadi	Eksportning geografik diversifikatsiyasi kuchayadi

Modelning iqtisodiy mohiyati shundaki, maxsus markaz eksportyorlarning tashqi bozorlarga chiqishida yuzaga keladigan axborot nomukammalligi, standartlashuvdagi uzilishlar va sinov-infratuzilma yetishmovchiligini bartaraf etadi. Natijada eksport xarajatlari pasayadi, eksportga tayyor mahsulotlar ulushi ortadi, tashqi bozorda qaytarish holatlari kamayadi, mahsulotning qo‘shilgan qiymati va sotuv narxi oshadi.

Taklif etilayotgan markazni amalga oshirish bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Birinchi bosqichda markazning huquqiy maqomi va tashkiliy tuzilmasi belgilanadi, viloyat hokimligi qoshida koordinatsion organ tuziladi. Ikkinchi bosqichda to‘rt funksional blok shakllantiriladi va malakali kadrlar (eksport bo‘yicha mutaxassislar, marketing, huquq, moliya) jalb qilinadi. Uchinchi bosqichda markaz raqamli platforma bilan integratsiyalanadi va eksportyorlarga to‘liq xizmat ko‘rsatishni boshlaydi. Tadqiqotchi fikricha, markazning barqaror ishlashi uchun uning moliyalashtirish manbai (davlat byudjeti, eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi va xizmatlardan tushadigan daromad) aniq belgilanishi va faoliyati muntazam baholanishi zarur. Bunda markaz nafaqat xarajat markazi, balki eksport o‘rishini ta‘minlovchi investitsiya sifatida qaralishi lozim³

Markazning samarali ishlashida malakali kadrlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Markaz xodimlari xalqaro savdo, marketing, sertifikatlash, logistika va moliya sohalarida chuqur bilim va amaliy tajribaga ega bo‘lishi lozim. Bu – viloyatdagi eng dolzarb muammolardan biri, chunki ikkinchi bobda aniqlanganidek, eksportga yo‘naltirilgan malakali kadrlar tanqisligi viloyat eksport salohiyatini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biridir. Tadqiqotchi fikricha, markaz nafaqat xizmat ko‘rsatuvchi tuzilma, balki eksport kadrlarini tayyorlovchi o‘quv-amaliy markaz vazifasini ham bajarishi – mahalliy oliy o‘quv yurtlari (xususan Buxoro davlat

³ Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi: «yagona darcha», «tadbirkordan–eksportyorgacha», eksportportali.uz. - Toshkent, 2024.

universiteti) bilan hamkorlikda eksport menejerlarini tayyorlashi – lozim. Bu yondashuv qisqa muddatli xizmat ko‘rsatishni uzoq muddatli kadrlar salohiyatini shakllantirish bilan uyg‘unlashtiradi⁴.

Eksportni rivojlantirishning eng samarali tashkiliy shakllaridan biri – klaster yondashuvidir. Klaster – ma’lum bir hududda jamlangan, o‘zaro bog‘liq korxonalar, yetkazib beruvchilar, ilmiy-ta’lim muassasalari, moliya institutlari va davlat organlarining birlashmasi bo‘lib, ular hamkorlik va raqobat orqali qo‘shilgan qiymat yaratadi, innovatsiya va malakani tarqatadi hamda raqobatbardoshlikni oshiradi⁵. Xalqaro tajriba va empirik tadqiqotlar klasterlarda joylashgan tarmoqlarning ish haqi, bandlik va eksport bo‘yicha klasterdan tashqaridagilarga nisbatan tezroq o‘shishini tasdiqlaydi⁶. Muallif fikricha, Buxoro viloyatining boy tarmoq tuzilishi (to‘qimachilik, agrosanoat, turizm, hunarmandchilik) klaster modelini joriy etish uchun qulay zamin yaratadi.

Klaster tuzilmasining markazida yetakchi (lokomotiv) korxonalar turadi, ular atrofida kichik va o‘rta korxonalar, xomashyo yetkazib beruvchilar, ilmiy-ta’lim muassasalari, moliya institutlari, logistika xizmatlari va davlat organlari joylashadi. Bu ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi qiymat zanjirini mustahkamlaydi va eksport salohiyatini oshiradi. Muallif viloyat misolida “Buxoro eksport klasteri”ni taklif etadi (2-rasm).

Ilmiy-ta’lim muassasalari	Xomashyo yetkazib beruvchilar	Moliya institutlari (bank, sug‘urta)
--------------------------------------	--	---

⁴ Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi: «yagona darcha», «tadbirkordan–eksportyorgacha», eksportportali.uz. - Toshkent, 2024.

⁵Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. — 1998. — Vol. 76, No. 6. — P. 77–90.

⁶ Delgado M., Porter M.E., Stern S. Clusters, Convergence, and Economic Performance // Research Policy. - 2014. - Vol. 43, No. 10. - P. 1785-1799.

Logistika va transport xizmatlari	KLASTER YADROSI: yetakchi eksportyor korxonalar	Kichik va o‘rta korxonalar (KO‘K)
Davlat organlari (hokimlik, agentlik)	Marketing va brending xizmatlari	Sertifikatlash markazlari

2-rasm. “Buxoro eksport klasteri”ning umumlashtirilgan tuzilmasi⁷

Klasterda markaziy yadro (yetakchi eksportyor korxonalar) atrofida barcha ishtirokchilar bilan o‘zaro bog‘langan. Bunday tuzilma ichida bilim, texnologiya va malaka almashinuvi tezlashadi, umumiy infratuzilma (laboratoriya, logistika, brending) birgalikda foydalaniladi va eksport bozorlariga birgalikda chiqish imkoniyati yaratiladi⁸. Tadqiqotchi fikricha, Buxoro eksport klasterida to‘rtta faoliyat yo‘nalishini shakllantirish istiqbolidir, to‘qimachilik klasteri, agro-oziq-ovqat klasteri, turizm klasteri va hunarmandchilik klasteri.

Ushbu klaster biloyat tumanlarining o‘ziga xos resurs va salohiyatiga asoslanadi. Klasterlarni shakllantirishda asosiy e‘tibor qiymat zanjirining yuqori bo‘g‘inlariga (tayyor mahsulot, brending, sertifikatlash) qaratilishi lozim, chunki aynan shu bo‘g‘inlar eng katta qo‘shilgan qiymatni va eksport tushumini ta‘minlaydi. Klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi kooperatsiya tarmog‘i rasmiy shartnomalar, umumiy loyihalar va birgalikdagi eksport tashabbuslari orqali mustahkamlanadi⁹.

Kooperatsiya tarmoqlari klaster ichidagi gorizontal (bir xil bosqichdagi korxonalar o‘rtasida) va vertikal (qiymat zanjirining turli bosqichlari o‘rtasida) hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Gorizontal kooperatsiya birgalikda

⁷ Muallif ishlanmasi.

⁸ OECD. Clusters, Innovation and Entrepreneurship. - Paris: OECD Publishing, 2009. - P. 11-70.

⁹ Ketels C., Protsiv S. Cluster Presence and Economic Performance: A New Look Based on European Data // Regional Studies. - 2021. - Vol. 55, No. 2. - P. 208-220.

xomashyo sotib olish, umumiy ko'rgazmalarda ishtirok etish va eksport partiyalarini birlashtirish imkonini bersa, vertikal kooperatsiya xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan zanjirni mustahkamlaydi¹⁰. Tadqiqotchi fikricha, kichik korxonalar uchun kooperatsiya alohida ahamiyatga ega: ular yakka holda eksport qila olmasalar-da, kooperativ yoki konsorsium shaklida birlashib, yirik eksport partiyalarini shakllantirishi va xalqaro bozorga birgalikda chiqishi mumkin.

2-jadval.

Buxoro eksport klasteri faoliyati yo'nalishlari¹¹

Klaster	Qiymat zanjiri	Eksport maqsadi
To'qimachilik klasteri	Paxta–ip–kalava– gazlama–tayyor kiyim zanjiri	Yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot eksporti
Agro-oziq-ovqat klasteri	Yetishtirish–qayta ishlash–qadoqlash– sovutib saqlash	Qayta ishlangan meva– sabzavot va qorako'l eksporti
Turizm klasteri	Mehmonxona– transport– gastronomiya– hunarmandchilik	Xizmatlar eksporti (xorijiy sayyohlar)
Hunarmandchilik klasteri	Zardo'zlik–gilam– ipak–badiiy buyumlar	Brendlangan, GI himoyali hunarmand mahsulotlari

¹⁰ Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. - 1998. - Vol. 76, No. 6. - P. 77-90.

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Klasterni shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayondir. Birinchi bosqichda klaster ishtirokchilari aniqlanadi va ularning manfaatlari muvofiqlashtiriladi; ikkinchi bosqichda klaster boshqaruv tuzilmasi (klaster tashabbuskori yoki koordinatori) shakllantiriladi; uchinchi bosqichda umumiy infratuzilma va xizmatlar (laboratoriya, brending, logistika) yaratiladi; to'rtinchi bosqichda esa klaster birgalikda eksport bozorlariga chiqadi¹². Muallif fikricha, klaster muvaffaqiyatining kaliti – ishtirokchilar o'rtasidagi ishonch va hamkorlik madaniyatini shakllantirishdir, chunki klaster majburiy ma'muriy birlashma emas, balki o'zaro manfaatga asoslangan ixtiyoriy tarmoqdir.

Klaster boshqaruvida davlatning roli muvozanatli bo'lishi lozim: davlat klaster tashabbusini qo'llab-quvvatlashi, infratuzilma va imtiyozlar bilan ta'minlashi mumkin, biroq klasterni ma'muriy buyruq bilan yaratib bo'lmaydi. Xalqaro tajriba (Italiyaning sanoat tumanlari, Germaniyaning to'qimachilik klasterlari, Hindistonning Tirupur trikotaj klasteri) shuni ko'rsatadiki, eng muvaffaqiyatli klasterlar quyidan yuqoriga (bottom-up) tashabbus bilan, korxonalarning o'zaro ehtiyojidan kelib chiqib shakllanadi¹³. Muallif fikricha, Buxoro viloyatida klasterni shakllantirishda davlat «katalizator» rolini o'ynashi, dastlabki infratuzilmani yaratish, koordinatsiyani ta'minlash va imtiyozlar berish kerak, ammo klaster boshqaruvi asta-sekin xususiy ishtirokchilar zimmasiga o'tishi lozim.

Klasterlarni moliyalashtirishda kombinatsiyalashgan yondashuv qo'llaniladi: davlat dastlabki infratuzilma (umumiy laboratoriya, logistika markazi, brending) uchun resurs ajratadi, klaster ishtirokchilari o'z faoliyatini moliyalashtiradi, xalqaro grantlar va texnik yordam dasturlari esa malaka oshirish va texnologiya transferini qo'llab-quvvatlaydi¹⁴. Tadqiqotchi

¹² OECD. Clusters, Innovation and Entrepreneurship. - Paris: OECD Publishing, 2009. - P. 11-70.

¹³ Delgado M., Porter M.E., Stern S. Clusters, Convergence, and Economic Performance // Research Policy. - 2014. - Vol. 43, No. 10. - P. 1785-1799.

¹⁴ OECD. Clusters, Innovation and Entrepreneurship. — Paris: OECD Publishing, 2009. — P. 11–70.

ilmiy –amaliy anjuman

fikricha, klaster moliyalashtirishida eng muhim tamoyil – davlat resurslarini individual korxonalarga emas, balki barcha ishtirokchilar foydalanadigan umumiy infratuzilma va xizmatlarga (klaster manfaatdor tovarlariga) yo‘naltirishdir. Bu yondashuv davlat resurslaridan maksimal samara olish va klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyati uchun yuqorida taklif etilayotgan tashkiliy mexanizmlarni joriy etish va samarali rivojlantirishda hududiy salohiyat va boshqa imkoniyatlar etarli darajda mavjud.